Ключевые слова: Образование в области спорта, подготовка кадров в области физического воспитания и спорта, достижения молодежи в области спорта, «Нифоллари Умид», «Идеальное поколение», «Универсиада».

ABSTRACT:

This article provides information on the legal basis for the development of sports in the Republic of Uzbekistan, reforms in the field of physical education and sports in our country, and the achievements of the youth of Uzbekistan in sports.

Key words: Education in the field of sports, training of personnel in the field of physical education and sports, achievements of young people in the field of sports, "Niphollari Umid", "A perfect generation", "Universiade"

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki, sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar o'rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport-yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g'urur-iftixor bag'ishlaydi.



Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning ommalashuvini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish, jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirish, xalq milliy o'yinlarini qayta tiklash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo'yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratlarini oshirish maqsadida mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan amalga oshirish uchun ko'plab qabul qilgan farmon va qarorlari mamlakatimizda sport sohasini ommalashtirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatiga ega bo'ldi. Shuningdek mamlakatimiz mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab bu sohaning rivojlanishi va islohotlarni amalga oshirish uchun bir qancha qonun loyihalari qabul qilindi. Jumladan, "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, "Bolalar va o'smirlar sport maktablarini kadrlar bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirlining buyrug'i, 2007-yilda "Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi byudjetini va bolalar sport obyektlari qurilishining manzilli dasturini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori, "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori kabi rasmiy me'yoriy hujjatlar qabul qilinishi yurtimizdagi barcha hududlardagi mahallalar va ko'chalardagi yoshlarni, o'zbek milliy sport o'yinlari bilan tarbiyalanishiga va komil inson bo'lib shakillanishiga olib keldi.

2018-yilning 5-mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, ilgari davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etilib, uning vazifa va vakolatlari kengaytirilgandi. 2018-yil 20-sentyabr kuni Yurtboshimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Unda sportchilarni tanlab olish – seleksiya ishlarini takomillashtirish bo'yicha yangi tizim joriy etilishi dastlabki natijalarini berganligi ta'kidlandi. Biz xalqaro sport maydonlarida O'zbekistonning nufuzi va obro'-e'tiborini oshirishga katta hissa qo'shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e'tibor berishimiz kerak,[1] – dedi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur yig'ilishda.



Mamlakatimizda sport sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shahar va qishloqlarda zamonaviy sport komplekslari bunyod etildi. “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” musobaqalari yoshlarni ommaviy sportga, sog‘lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi. Iste’dodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo‘yicha uzluksiz tizim yaratildi. Buning natijasida mamlakatimiz sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g‘alabalarni qo‘lga kiritib, xalqimiz salohiyatini butun dunyoga namoyon qilishmoqda. Xususan, sportchilarimiz 2016-yili Braziliyada o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida 13 ta, Paralimpiya o‘yinlarida 31 ta medalga sazovor bo‘lib, yurtimiz sporti tarixidagi eng yuqori natijalarga erishdi. Bugungi kunda ham sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha sportchilarimiz yaxshi natijalarni qo‘lga kiritishmoqda. Bugungi kunda bolalarni sport bilan shug‘ullanishga ommaviy jalb etishni yanada kengaytirish maqsadida 1700 ta bolalar sporti obyektida 114,8 mingga yaqin sport seksiyalari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, bu 2020-yilgi ko‘rsatkichlardan 30 foiz ko‘p deganidir. Respublika bo‘yicha sport inshootlarida bugungi kunda 10 ming 75 nafar o‘qituvchi-murabbiylar faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, ulardan 4 ming 667 nafari oliy ma‘lumotli (43,4 foiz, 5 ming 599 nafari o‘rta-maxsus ma‘lumotli (56,6 foiz) hisoblanadi [2].

<http://lex.uz>. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sohadagi yana bir muhim hujjat bo‘ldi. Ushbu qaror bilan O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Dasturda 2017-2021-yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish uchun 995,2 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ sarflanishi, sport maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 167 ta sport inshooti, jumladan, 90 ta sport majmuasi va 77 ta suzish havzasini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash, jihozlash va qayta jihozlash nazarda tutilgan. Prezidentimizning joriy yil 10-avgustdagi “Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O‘zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi qarorida sportimiz yulduzlari va ularni kamolga



yetkazgan trenerlarning mashaqqatli mehnatlarini munosib taqdirlash, ularning tajribasi va salohiyatidan samarali foydalanish, oliy va maxsus ma'lumot olishlari hamda salomatliklarini tiklashlari xususida g'amxo'rlik qilingani e'tiborga loyiq. Mazkur hujjat O'zbekistonda sportchi va murabbiylarni moddiy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, ularning nufuzli xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etadigan sportchilar zaxirasini tayyorlashda munosib hissa qo'shishlariga imkoniyat yaratadi. O'zbekiston yoshlari sportning turli yo'nalishlarida o'zlarini sinab ko'rishmoqda va g'alabalarga erishishmoqda, bu ham bo'lsa yurtboshimizning sportga bergan e'tibori va qo'llab-quvvatlashlari natijasidir.

Yaqinda mamlakatimizning sport hayotida quvonchli yangilik bo'ldi. Osiyo Olimpiya Kengashining qaroriga ko'ra, 2025- yilda Yoshlar o'rtasidagi Osiyo o'yinlariga

Toshkent shahri mezbonlik qilishi belgilandi. Bu musobaqada Osiyo qit'asidagi 45 ta davlat yoshlari 20 ga yaqin sport turi bo'yicha o'zaro bellashadi.

– Bunday nufuzli xalqaro sport o'yinlarining O'zbekiston tarixida birinchi marotaba o'tkazilishi barchamizga faxr-iftixor bag'ishlaydi, albatta.

[Yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-kelajagi-bilan-bog'liq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega](http://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-kelajagi-bilan-bog'liq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega)

<http://lex.uz>. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.

Shu bilan birga, u bizga g'oyat katta mas'uliyat ham yuklaydi. Mana, sizlar kabi navqiron va azamat yoshlarning o'z kuch va mahoratini ko'rsatib, Vatanimiz bayrog'ini yuksakka ko'tarishlari uchun yana bir zo'r imkoniyat, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, xalqaro sport maydonlarida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilishga qodir sportchilarning iste'dodini yuzaga chiqarish uchun barcha ishlar amalga oshirilmoqda va bu ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Yurtimizda yosh avlodning jismoniy va ma'naviy yetuk bo'lib ulg'ayishi, jumladan, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, ommaviy sportga keng jalb etish maqsadida “Sog'lom turmush tarzi” elektron platformasi ishlab chiqilmoqda. Qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston sportchilarini 2021-yil Tokio



shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlariga tayyorlashga oid, «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», "O'zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", "Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida"gi qarorlar ishlab chiqildi va prezidentimiz tomonidan imzolandi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, sport klublarini tashkil etish, sport sohasidagi faoliyatni baholash tizimini yaratish, sport turlari va sport turining tarmoqlarini e'tirof etish, ularni sport turlari reestriga kiritish hamda ushbu reestrni yuritish tartibi to'g'risidagi nizom, sport hakamlari va sport hakamlarining malaka toifalarini berish tartibi to'g'risidagi nizomi hamda, O'zbekiston Respublikasi yagona sport tasnifi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash yuzasidan tegishli hujjatlar tayyorlash va amaldagi hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ustida ish olib borilmoqda. Ta'kidlab o'tilgan hujjatlar mamlakatimizda sport sohasini taraqqiy toptirishning o'ziga xos poydevori bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 noyabrdagi «jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ- 414-sonli qarori.

chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda ushbu qarorga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi"ning qabul qilingani bu boradagi yechimini kutayotgan masalalarni ijobiy hal qilishga xizmat qiladi.

So'nggi davrda Osiyo va jahon chempionatlarida sportchilarimiz erishayotgan yutuqlar soni va salmog'i sezilarli darajada o'sdi. Jumladan, joriy yilning yetti oyi mobaynida mamlakatimiz vakillari xorijda o'tkazilgan 120 dan ziyod nufuzli musobaqada vatanimiz sharafini munosib himoya qilishdi. O'zbekistonlik sportchilar jami 773 marotaba shohsupaga ko'tarilishdi: 292 ta oltin, 221 ta kumush, 261 ta bronza medali qo'lga kiritildi. May oyida Toshkentda boks bo'yicha o'tkazilgan Osiyo chempionatida sportchilarimiz o'nta vazn toifasidan to'qqiztasida oltin medallarga sazovor bo'lishgani xalqimizning kayfiyatini ko'tardi, ajoyib quvonchli lahzalarni hadya etdi. Sportni rivojlantirish vazirligi tizimidagi mutaxassislar mamlakatimizda



jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, xalqaro sport maydonlarida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilishga qodir sportchilarning iste'dodini yuzaga chiqarish uchun barcha ishlarni amalga oshirishi ustuvor vazifalar bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 noyabrdagi «jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ- 414-sonli qarori.

2. O'zbekistonda sportni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishning o'ziga xos-xususiyatlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent A. A. Tillyaxodjaev Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent J. P. Narziev Fan-sportga 2022/1son

3. [http://www.yoshlarittifoqi.uz/uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport sohasini rivojlantirish-masalalarining-muhokamasi](http://www.yoshlarittifoqi.uz/uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport_sohasini_rivojlantirish-masalalarining-muhokamasi)

4. <http://lex.uz>. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.

5. Qosimova D. S. Menejment nazariyasi: Darslik - Toshkent, «Tafakkur-bo'stoni». 2011.336 b.

6. K. Ziyodullayev, K. Yarashev, Babajanov R. Jismoniy atrbiya va sport menejmenti. 2020 Darslik 281 b

7. <https://lex.uz/docs/-3226019>

8. <http://sovminrk.gov.uz/uz/news/show/5315>



O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA QISHLOQ XO'JALIGIDAGI O'ZGARISHLAR

Esanov Hayitali Jumma o'gli

hayitaliesanov897@gmail.com Telefon raqam: +998885310140

Boboyev Faxriyor Baxtiyorovich

babaevvv19@gmail.com +998900080815

Denov Tadbirkorlik va pedagogika intituti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning mustaqilik yillaridagi ya'ni 1990-1995 yillardagi qishloq xo'jaligining xolati va bir nechta kamchiligi yoritib tahlil qilindi. SSSR dan ajralib chiqandan so'ng qishloq xo'jaligini holatini ham to'laqonli tahlil qilib boriladi. Bundan tashqari 1996-yildagi xalqaro iqtisodiy makonda sodir bo'lgan paxta inqirozini O'zbekiston qishloq xo'jaligiga tasirini namoyon etadi. Shuningdek, ushbu tezisda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish, o'sha davrdagi aholi uchun qishloq xo'jaligi ahamiyati baholanadi.

Kalit so'zlar: 1996-yildagi paxta inqirozi, SSSR , g'alla mustaqilligi, 2008-yildagi jahon moliyaviy inqirozi

Shuni takidlab o'tish kerakki, O'zbekistonda mustaqillikka erishish uchun boshlangan harakatning dastlabki paytlaridanoq va mustaqillikka erishgandan keyin mamlakat iqtisodiyotining asosiy va muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida zarur islohotlarni amalga oshirish eng avvalo bu sohada bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilikning nodavlat shakllariga o'tish, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatiga keng yo'l ochib berish kabi masalalarga e'tibor qaratildi. Bu sohalarni rivojlantirish uchun Respublikadagi Oliy Kengash tomonidan bir nechta muhim qarorlar qabul qilindi. Misol uchun 1990-yilning 20- iyunida qabul qilingan " Yer to'g'risida", 1991-yil 19-noyabrda "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida", 1992-yil 9-dekabrda "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida" va shuningdek 1993-yil 6-mayida "Yer solig'i to'g'risida"gi qonunlar mustaqilik davridagi qishloq xo'jaligi inqirozidan olib chiqib ketadadi lekin bir o'z vaqt o'tgandan so'ng 1996-yilda xalqaro iqtisodiy makonda paxta inqirozi yuz beradi va bu inqiroz qishloq xo'jaligi taraqqiyotini ozmuncha sekinlashtirib qo'yadi. Lekin bu inqirozdan chiqish uchun juda ham ko'p islohotlar va qarorlar ishlab chiqib qishloq xo'jaligiga tadbiiq etildi. Qishloq xo'jaligida g'allaning ham



o‘rni juda ham katta o‘rin egallaydi chunki asosan g‘alla eksport va import mahsuloti hisoblanadi. O‘zbekiston SSSR dan ajralib chiqqanidan so‘ng g‘alla yetishtirish sohasida juda ham ko‘p qiyinchilikga uchuradi chunki, SSSR davrida O‘zbekiston hududi asosan paxta maxsuloti yetishtirish uchun juda ham qullay bo‘lganligi sababli paxta maxsuloti ekiladigan hudud juda ham keng joyni egallagan edi. Shuning uchun, g‘alla ekiladigan hudud paxta maxsulotiga qaraganda juda ham kam edi. Mustaqillikka erishgandan so‘ng esa bu ikki maxsulot o‘rni tenglashtirildi va respublikamiz g‘alla mustaqiligiga erishildi bu juda ham katta o‘zgarishlarga olib keldi. Shu borada mustaqillik yillarida respublikada g‘alla mustaqilligini ta‘minlashga doir dastur ishlab chiqilgan ediki va u bosqichma- bosqich amalga oshirila boshlangan. Xususan, donli ekinlar maydoni 1993-yilda 300 ming gektarga kengaytirildi. 1991-1993 yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda 500 ming gektardan ko‘proq hosildor yerlar shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari yuritish uchun ajratib berilgan hsiobladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, mustqailikdan so‘ng g‘allani paxta mahsuloti bilan tenglashtirish uchunkeng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Shuni ham qo‘shimcha qilish joizki, 1995-yilda dehqon xo‘jaliklarining soni ham nisbatan tez ko‘paydi va shu yili ularning safiga 3 ming xo‘jalik qo‘shilgan edi. Shunga muvofiq ravishda, ularda band bo‘lgan qishloq mehnatkashlarining soni 79229 kishidan 105377 kishiga o‘shib bordi. Bilamizki 2007-2008- yillarda AQSHning moliya sektorida boshlangan inqiroz 2009-yil dunyo miqyosida global retssesiyaga aylanib ketdi va bu inqiroz bizga tasir etmasdan qo‘lmas edi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zining “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston muhitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” nomli asarida “...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta‘sir ko‘rsatmaydi, bizni chetlab o‘tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o‘ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bolmas xato bo‘lur edi” - deb ta‘kidlab o‘tgan. Bundan kelib chiqadiki bizning davlatga ham bu inqirozni bir nechta tasirlari bolish mumkun. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov bu inqiroz davlatning qishloq xo‘jaligiga bevosita ta‘sir qilmasligi uchun bir nechta qarorlar va farmonlar qabul qilgan edi. Bu islohotlardan asosiysi bu 2009-yilni “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb nomlagani bo‘lgan edi. Bundan tashqari 2009-yilning 26-yanvardagi 1046-sonli qarori “Oziqovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to‘ldirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining 2008-yil 20-oktabrdagi 4041-sonli Farmoni, «Fermer xo‘jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish



choralarini ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tashkil etish to'g'risida»gi qarori va boshqalar bu inqirozdan olib chiqish uchun qabul qilingan edi. Respublikamiz SSSR dan ajralib chiqqandan so'ng bir nechta oziq-ovqat muamosiga ham duch keldi lekin bu muamoni oldini olish uchun Vazirlar Mahkamasining 1995-yildagi "Chorvachilikda xususiylashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilindi. Natijada respublikada ishlab chiqarilayotgan go'sht va sutning 75% ni xususiy sektor bera boshladi. Shu qarorlar natijasida oziq-ovqat muamosi o'z yechimini topa boshladi. Mustaqillik yillaridagi islohotlar natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini asosan paxta va g'allani eksport va import qilish boshlandi. Bu eksport va import qilish natijasi Respublikamizdagi qishloq xo'jaligi ekinlari sifati yaxshilandi va yerga ekilgan yuqori navli urug'lar natijasida fermerlar va dehqonlar ko'proq foyda ola boshladi. Eksport va importdan tashqari qishloq xo'jaligiga xorijdan turli xil investitsiyalar jalb qilinmoqda. Hozirgi vaqtda Toshkent shahrida "O'zagroekspo" ko'rgazmasi an'naviy tarzda o'tkazib kelinmoqda. Shu kabi ko'rgazmalarda qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi subyektlar xorijlik tadbirkorlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va shu orqali sohaga investitsiyalar oqimi ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Misol qilib aytish mumkinki, 1998-yildan boshlab paxtachilikda Isroil texnologiyalari asosida tomchilatib sug'orish usuli keng qo'llanib kelinmoqda. Buning natijasida suv yetishmaydigan va cho'li hududlarda qo'llash juda ham keng rivojlanmoqda. Bu investitsiyadan hozirgi kunda Respublikamizning barcha hududlarida keng qo'llanilib kelinmoqda. Bizning respublikamiz mustaqillikga erishguncha davlat budjetini asosan qishloq xo'jaligi tashkil qilgan hisoblanadi. Davlatni keyingi rivojlanish yo'liga olib chiqish uchun bu sohadagi o'zgarish va rivojlanishga katta e'tibor berish lozim edi. Bizning Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyech Karimov bu sohani rivojlanishiga judaham katta e'tibor qaratdi va katta o'zgarishlar qila oldi. Bu qishloq xo'jaliklar o'zgarishlar natijasida boshqa sohalarni rivojlanishi ham teshlashgan edi chunki barcha soha bir biri bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumminki, Bu rivojlanish natijasida xalqning yashash sharoiti yaxshilanib bordi va aholining o'sishi kuzatildi desak xato bo'lmaydi. Qisqa qilib aytganda, bizning Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov Respublikamizni mustaqillik yillaridagi tang ahvoldan olib chiqib juda muhim islohotlarni amalga oshirdi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI «Tafakkur» nashriyoti 2011-yil 15-16 betlar.
2. “O‘zbekiston tarixi” 11-sinf darsligi (44-bet).G‘afur G‘ulom nashriyoti 2018.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/mustaqillik-yillarida-angor-tumanida-qishloq-xojaligining-rivojlanishi-va-tumandadi-qishloq-xo-jaligi-bilan-bog-liq-bo-lgan>
4. <http://fayllar.org/i-mavzu-ozbekistonning-eng-yangi-tarixi-oquv-fani-kursining-prv2.html?page=19>



ARGENTINANING TABIIY, IJTIMOIIY-IQTISODIY TARIXI.

Esanov Hayitali Jumma o'gli

hayitaliesanov897@gmail.com

Telefon raqam: +998885310140

Boboyev Faxriyor Baxtiyorovich

babaevv19@gmail.com

+998900080815

Denov Tadbirkorlik va pedagogika intituti talabalari

Annotatsiya: ushbu maqolada Argentinaning ijtimoiy -iqtisodiy va tabiiy holat tarixi manbalar asosida yoritilgan bo'lib, asosan aholisi boshqaruv shakli haqida ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: indeyslarning, polimetallar, uran, mis, qalay, volfram, . 1945 yil martidagina, 1993 yil 9 sentabrda, Yetakchi tarmoq — oziq-ovqat.

Janubiy Amerikadagi davlat. Qit'aning Janubiy-Sharqiy qismini, olovli yer orolning Sharqiy qismini va bir qancha orollarni egallaydi. Atlantika okeani sohilida joylashgan. Ma'muriy jihatdan 22 viloyat (provintsiya), federal (poytaxt) okrugi va olovli yer hududiga bo'linadi. Maydoni 2767 ming kilometr kvadrat. Aholisi 36,1 million kishi (1999). Poytaxti Buenos-Ayres shahri. Davlat tuzumi. Argentina — Federativ respublika. Amaldagi Konstitusiyasi 1994 yil 24 avgustda qabul qilingan. Davlat boshlig'i — prezident. Prezident va vitse-prezident 4 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — millim Kongress (parlament). Kongress ikki palata: Senat va deputatlar palatasidan iborat. Ijrochi hokimiyat prezident va hukumatdir. Tabiati. Argentinaning sharqi keng tekisliklardan va g'arbi tog'lardan iborat. Mamlakatning butun shimoli-sharqini La-plata pasttekisligi (Gran-Chako, Sharqiy Pampa tekisligi), Janubiy-sharqini Patagoniya yassi tog'ligi egallaydi. G'arbdagi tog' yon bag'irlari balandlasha borib, And tog'lariga ulanib ketadi. Janubiy Amerikaning eng baland nuqtasi Akonkagua (6960 metr) ham Argentina hududidadir. Foydali qazilmalari: neft, gaz, temir, polimetallar, uran, mis, qalay, volfram va boshqa rudalar. Argentina tekislik qismining iqlimi — tropik va subtropik, Janubda — mo'tadil. Eng issiq oy (yanvar) ning o'rtacha harorati shimolda 28°, Janubda 10°, iyulning o'rtacha harorati shimolda 18° va Janubda gradus. Tog'larda iqlim mo'tadil sovuq. Yiliga Patagoniyada 100 — 300 millimetr, shimoliy-Sharqda 1400 — 1600 millimetr, Andning Sharqiy yon bag'irlarida 5000



millimetrgacha yog'in yog'adi. Asosiy daryolari: Parana, Paragvay, Urug'vay, Rio-Salado, Rio-Kolorado, Chubut, Rio-Negro. Argentina ko'llarining aksariyati muzliklardan paydo bo'lgan (Naul-Uapi, Buenos-Ayres, Vedma va boshqalar). Argentina hududining salkam 20% doimiy ko'm-ko'k va bargi to'kiluvchi o'rmonlar bilan qoplangan. Gran-Chakodagi qizil tuproqda siyrak o'rmon, Pampadagi unumdor qoratuproqda pichanzor dashtlar, Patagoniyada —yarim cho'l. Argentinaning milliy bog'lari — Iguasu, Lanin, Naul-Uapi va boshqalar. Aholisi. Argentinlar (mamlakat aholisining 90%) asosan yevropalik muhojirlardan shakllangan. Shuningdek italyanlar, yahudiylar, ukrainlar, ispanlar, katalonlar, polyaklar, nemislar, frantsuzlar va boshqalar ham yashaydi. Tub joy aholisi — indeyslarning aksariyati yevropaliklarning mustamlakachilik harakatlari jarayonida qirilib ketgan. Ularning oz qismi (kechua, tupi-Guaranlar va boshqalar) Argentinaning shimoliy-g'arbida va Paragvay bilan bo'lgan chegara yaqinida yashaydi. Rasmiy tili — ispan tili. Dindorlarning aksariyati katoliklar. Aholining o'rtacha zichligi 1 kilometr kvadratga 9 kishidan ko'proq. Aholining 86% shaharlarda yashaydi. Yirik shaharlari: Buenos-Ayres, Kordova, Rosario, La-Plata. Qadim zamonlardan hududida ko'p sonli indeys qabilalari yashar, ularda jamoa-urug'chilik munosabatlari hukmron edi. Shimoliy-g'arbda diagitlar, charrua va kerandilar eng rivojlangan indeys qabilalari bo'lgan; ular o'troq hayot kechirar, dehqonchilik, baliqchilik, ovchilik bilan shug'ullanar, rangli metallar eritishni, to'qimachilikni bilar edi. Shimoliy-Sharqda va markazda Guaranlar, tapeslar va boshqalar yashar, janubda araukanlar va patagonlar ko'chib yurar edi. 16-asrning 1-yarmida hozirgi Argentina hududi ispanlar tomonidan bosib olinib boshladi. Ispanlar bu mamlakatni Rio-de-La-plata (ispancha kumush) daryosi nomi bilan Laplata deb atadilar. Mustamlakachilarga qarshi indeys qabilalari bir necha marta isyon ko'tardi (1580, 1630, 1657, 1710 – 11 yillar). 1776 yilda hozirgi Argentina hududi butunlay Rio-de-La-plata vitse-qirolligi tarkibiga qo'shib olindi. Argentinada katta feodal yer egaligi vujudga keldi. Amerikadagi ispan mustamlakalarining 1810 — 26 yillardagi mustaqillik uchun urushi vaqtida kreollar (dastlabki ispan kelgindilarining avlodlari) M. Belgrano va X. San-Martin rahbarligida 1810 — 16 yillarda ispan mustamlakachilariga qarshi qurolli kurash olib bordilar. Kurash boshlangan 25 may kuni argentin xalqining milliy bayrami bo'lib qoldi. 1816 yilda viloyatlar vakillarining Tukiman shahridagi kongressi La-plata Birlashgan viloyatlarini mustaqil deb e'lon qildi. 1826 yilda Argentina Federativ Respublikasi tuzildi. 19-asr mobaynida vujudga kela boshlagan burjuaziya manfaatlarini ifodalovchi unitariylar bilan yer egalari manfaatlarini himoya qiluvchi federatsiyachilar o'rtasida kurash



davom etdi. 19-asr 2-choragidan Argentinada Buyuk Britaniya iqtisodiy va siyosiy mavqei mustahkamlandi, 1833 yilda u Folklend (Malvin) orollarini bosib oldi. 19-asr oxirlarida mamlakatga Amerika va Germaniya kapitali kirib keldi. Hukmron davlatlar Argentinani siyosiy va iqtisodiy jihatdan qaramlikka solib, uni go'sht, don va b. xom ashyo yetkazib beruvchi mamlakatga aylantirdilar. 19 — 20-asrlar bo'sag'asida Argentinada sanoat rivojlandi. 19-asrning oxiridan Argentinada turli harbiy diktaturalar hukmronlik qildi. 2-jahon urushi yillarida Argentina betaraflik e'lon qilgan bo'lsa ham, aslida fashistlarga ko'maklashdi. 1945 yil martidagina Germaniya va Yaponiyaga qarshi urush e'lon qildi. 1945 yildan Argentina — BMT a'zosi. 1943 yilgi harbiy to'ntarish natijasida bir guruh ofitserlar hokimiyatni qo'lga oldilar. Ularning rahbarlaridan biri general X. D. Peron (1946 – 55 va 1973 — 74 yillarda Argentina Prezidenti) hukmron ajnabiy davlatlarning mavqeini zaiflashtirish hisobiga mamlakatdagi yuqori tabaqani mustahkamlash siyosatini yuritdi. 1976 yilda general Videla hukmronligi davrida zo'ravonlik va tartibsizliklarga qarshi qattiq choralar joriy etildi, iqtisodiyotni mustahkamlashga kirishildi. 1981 yilda Roberto Viola prezident etib saylandi, ammo harbiylar keyinroq uni ag'darib tashladilar. Shu davrda (1982 yil) Folklend (Malvin) orollari Buyuk Britaniyaga qarashlilikini tan olmagan Argentina ularni egallashga urinib ko'rdi, lekin bu harakat muvaffaqiyatsiz chiqdi. 1983 yildagi yalpi saylov natijasida Raul Alfonsin prezident etib saylandi. 1999 yildan esa Fernando de la Rúa Argentina Prezidenti. 1993 yil 9 sentabrda O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Siyosiy partiyalari, kasaba uyushmalari. Fuqaro radikal Ittifoqi, 1889 yilda taraqqiyparvar ziyolilar tomonidan tuzilgan; birlik va taraqqiyot harakati, 1957 yilda fuqaro radikal Ittifoqi partiyasidan ajralib chiqqan guruh negizida tuzilgan; Xalq sotsialistik partiyasi, 1982 yilda tuzilgan; murossozlik partiyasi, 1963 yilda birlik va taraqqiyot harakati partiyasi bo'linishi natijasida vujudga kelgan; Xustisialistik (adolat) partiyasi, 1947 yilda X. Peron tomonidan tuzilgan; taraqqiyparvar demokratik partiya, 1909 yil tuzilgan. Argentinada Kommunistik partiya, sotsial-demokratik partiya, Demokratik markaz Ittifoqi, Xristiandemokratik partiya ham bor. Umummehnat konfederatsiyasi 1930 yilda tuzilgan. Argentina iqtisodiy jihatdan Lotin Amerikasida eng rivojlangan mamlakatlardan biri. Foydali qazilma konlari ko'p, malakali ishchi kuchiga ega. Qishloq xo'jaligi, sanoatning turli tarmoqlari rivojlangan. Ammo 80-yillar oxirida boshqaruvning samarasizligi oqibatida Argentina iqtisodiyoti barbod bo'lish arafasida edi. 1989 yilda saylangan yangi hukumat iqtisodiyotni isloh qilish dasturini amalga oshirdi, natijada Argentina yana barqaror rivojlana boshladi. 1991 yilda qabul qilingan konvertatsiya to'g'risidagi



qonunga binoan ko'pchilik davlat korxonalari xususiylashtirildi, iqtisodiyotga chet el investisiyalari jalb etila boshladi, byudjetga soliqlardan tushum yaxshilandi, ishchilarga kompensasiya to'lash tizimi yaratildi. Argentina asosan, qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Yetakchi tarmoq — oziq-ovqat (go'sht, yog', un, vinochilik, konserva, qand-shakar) sanoati. Go'sht yetishtirish va eksport qilish sohasida Argentina dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi. To'qimachilik, charmpoyabzal tarmoqlari rivojlangan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, Janubiy Amerikadagi davlatlar ichida Argentina alohida ajralib turar ekan iqtisodiy- ijtimoiy jihatdan yetakchi o'rinda turar ekan.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Milliy ensklopediyasi.
2. uzreport.uz sayti
3. World Economic Outlook Database, April 2019“. IMF.org. International Monetary Fund. Qaraldi: 2019-yil 29-sentyabr.
4. „Population, total“. World Bank. Qaraldi: 2022-yil 16-oktyabr.
„World Economic Outlook Database, April 2021“. IMF.org. International Monetary Fund. Qaraldi: 2022-yil 16-oktyabr.
5. „World Economic Outlook Database, October 2021“. imf.org. IMF. Qaraldi: 2022-yil 16-oktyabr.
6. „Indec“ (es). Indec. 2016-yil 24-sentyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2016-yil 23-sentabr.



TURK XOQONLIGINING HARBİY YURİSHLARI

Esanov Hayitali Jumma o'gli

hayitaliesanov897@gmail.com

Telefon raqam: +998885310140

Boboyev Faxriyor Baxtiyorovich

babaevv19@gmail.com

+998900080815

Denov Tadbirkorlik va pedagogika intituti talabalari

Annotatsiya: ushbu maqolada Turk xoqonligining tashkil topishi, harbiy san'ati, qo'shin tuzilishi, hukmdorlar tarixi manbalar asosida yoritib berilgan bo'lib hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Turk Xoqonligi (552—747), Urxun-Enasoy bitiktoshlari, Turkshunos olim L.N. Gumilev, Xitoyga 556-557 yillarda, Eron — Vizantiya o'rtasida, Maniax boshchiligida.

Markaziy Osiyo mintaqasi va unga tutash bir necha o'lkalarni o'z ichiga olgan yirik saltanat (6—8-asrlar). Turk Xoqonligi (552—747) — Turkiylar tomonidan Yevrosiyoda yaratilgan ulkan imperiya. Ularga Ashina urug'i boshchilik qilgan. O'zining eng ravnaq topgan davrida Oxota dengizidan Qrim yarimoroligacha, Sibirdan Hindistongacha bo'lgan yerlarni boshqargan. Turk xoqonligiga doir ma'lumotlar Urxun-Enasoy bitiktoshlari, xitoy yilnomalari, yunon (Vizantiya), arman, suryoniy, so'g'd, arab, fors, tibet, baqtriy manbalarida saqlanib qolgan. Turk, turkiylar-eng yirik etnoslardan birining nomi. Turk so'zi baquvvat, barkamol, odillik kabi ma'nolarini anglatadi....muslima. Oltoy xoqonlik markazi qilib belgilandi Turklarning g'arbga yurishlariga Istami boshchilik qiladi Unga YABG'U XOQON deb unvon beriladi 6-asrning 2 yarmida Turk xoqonligi vujudga kelgunga qadar mintaqada 2 yirik davlat: Eftaliylar va Jujanlar davlati hukm surardi. Turk xoqonligining asoschilari bo'lmish turkiy Ashina qabilasi esa bu paytda Oltoy tog'larining janubiy. yon bag'irlarida istiqomat qilar va Jujanlar davlatiga tobe edi.

Jujanlar qo'l ostidagi ashina turklari kuchayib 545 yilda . tele qabilalarini, 551 yil. esa jujanlarni yengadilar. Shu tariqa og'aini Bumin va Istami 552 y. Turk xoqonligiga asos soladilar. Bumin o'zini xoqon deb e'lon qiladi (qarang Bumin xoqon, Istami xoqon). 555 yilga kelib, Markaziy Osiyoning shim.sharqidagi qabilalar, Uzok, Sharqdagi kidan (qoraxitoy), tatabi, shivey kabi manchjur va



mo'g'ul qabilalari, Yenisey bo'yidagi turkiy qabilalar ham Turk xoqonligi qo'shinlari tomonidan tobe etilib, 555 yildayoq Sharqiy Turkistonning katta qismi Turk xoqonligi ko'l ostiga o'tadi. Turk xoqoni Mug'on (553-572) Xitoyga 556-557 yillarda yurishlar qilib, bu yerdagi G'arbiy Vey (Toba) sulolasi o'rnini egallagan Shim. Shim. Si (550—577) va Chjou (577—581) sulolalarini o'z ta'sir doirasiga oladi. Eftaliylarga Naxshab sh. (hozirgi Qarshi sh. yaqinidagi Yerqo'rg'on xarobasi) atrofida og'ir zarba beradi. Turk xoqonligi eftaliylarga qarashli Choch, Farg'ona, Ustrushona, Samarkand, Xorazm, Buxoro, Kesh va Nasafni qo'lga kiritgan bir paytda xoqonlikning eftaliylarga qarshi ittifoqchisi Sosoniylar Eroni hukmdori Xusrav I Anushirvon esa Eftaliylar tarkibida bo'lgan Toxariston, Kobuliston, Zobuliston (Shim. Afg'oniston) viloyatlarini egallaydi. Sosoniylar bilan bevosita qo'shni bo'lib qolgan xoqonlikning Eronga yuborilgan elchilarining o'ldirilishi va sug'diy Maniakh boshchiligida ipak tijoratini yo'lga qo'yish maqsadida yo'llangan elchilarga Eron shohining qo'pol munosabatda bo'lishi, hatto ular keltirgan ipak matolarni yoqishga buyurishi Turk xoqonligi va Sosoniylar o'rtasidagi ittifoqqa raxna soladi. Turk xoqonligi Eron bilan orani uzib, Vizantiya imperiyasiga yaqinlashish, u bilan savdosotiq, asosan, ipak tijoratini rivojlantirish uchun unga 567 y. mazkur Maniakh boshchiligida elchilik hay'atini yuboradi. Shu paytdan boshlab ikki davlat o'rtasida ittifoq vujudga keladi. Eron — Vizantiya o'rtasida 571 yil. jang boshlangach, g'arbga yurishni davom ettirayotgan Istami shu yili Shim. Kavkazdagi Kuban daryosi havzasi va Ozarbayjonni qo'lga kiritadi. Boshqa tarafdin esa 567 yildanoq Sosoniylarga qarshi Amudaryo yo'nalishi bo'ylab yurish uyushtira boshlagan Istami bu jabhada katta muvaffaqiyatlar qozonib, Toxaristonni olgach, Turk xoqonligining jan.g'arbiy chegarasi Amudaryo bo'lib qoladi. 6-asrning so'nggi choragida Kobuliston (Kobul), Zobuliston va Xurosonning katta kismi xoqonlik tarkibiga o'tadi. 72-581 yillarda Turk xoqonligini Taspar xoqon boshqardi. 576 yilda Turk xoqonligi bilan Vizantiya orasida ixtilof paydo bo'ladi va xoqonlik shu yili Qrimdagi Bospor (Kerch)ni bosib oladi va 581 yilda Xersonesni qamal qiladi. Sharqiy Yevropada xoqonlik hududi bu paytga kelib Qora dengiz sohillari, sharqda Koreya bo'g'ozini, shimolida Ural tog'lari, Yenisey va Baykalbo'yi, janubida Afg'oniston va Shimoliy Hindiston hududlarini o'z ichiga olar edi. Turk xoqonligi tarixi bilan mashhur tarixchi va arxeolog olimlar shug'ullangan (Aleksandr Bernshtam, Lev Gumilyov, Sergey Klyashtorniy, Dmitriy Savinov, Leonid Kyzlasov, Igor Kyzlasov, Olga Smirnova, Larisa Baratova, Nasimxon Rahmon, Shamsiddin Kamoliddinov). VI asr o'rtalariga kelib, Markaziy Osiyoda Ashina qabilasi hukmdori Bumin yabg'uning ta'siri kuchayib, o'zini "el-xoqon" deb e'lon



qilishi bilan yangi davlat Turk xoqonligi tashkil topadi. Turk xoqonligining chegaralari sharqda Koreya bo'g'ozidan g'arbda to SHimoliy Qora dengiz bo'ylarigacha, shimoliy Ural tog'larigacha, Enisey va Baykal bo'yidan janubga tomon Afg'oniston va shimoliy Hindistongacha bo'lgan xududlarni egallashga muvaffaq bo'ladi. Turk xoqonligi tez orada dunyoning yirik imperiyalaridan biriga aylanishga muvaffaq bo'ladi. Albatta bunday yirik davlatga aylanish uchun xoqonlikning harbiy qo'shini ancha ilg'orlab ketganligidir.

Turkshunos olim L.N. Gumilev takidlaganidek, "Turkutlar (qadimgi turklar) ning erishgan g'alabalari tufayli dunyoning yarmiga egalik qilishlari tasodif emas edi. Ishonch bilan aytish mumkinki, ular umumko'chmanchilik darajasidan ancha yuqori bo'lgan qo'shin va boshqaruv tizimini yaratdilar hamda shunga yarasha g'alabalarga sazovor bo'lishdi". O'z davrida turklar temir qazib olishni yaxshi bilgan. Ular temirdan qurol-yarog' ishlab chiqarishda xususan mustahkam sovutlar, harbiy anjomlar, turli xil harbiy qurol yarog'lar yasashgan. Buning natijasida harbiy taktikalarning rivojlanganligini, shuning uchun katta janglarda ham ko'plab g'alabalarga erishganliklarini bilish mumkin. Turk xoqonligi o'zbek davlatchiligi tarixining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, uning tarixiga bag'ishlangan ko'plab tarixiy voqealar, jangu-jadallar haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarini o'rganish imkonini beradi. Qo'shin tuzulishi. Bu davrga oid yozma manbalardagi ma'lumotlar va qadimgi jangchilar tasvirlangan qoyatosh rasmlaridan ma'lum bo'lishicha, qo'shin ikki turda qurollanganligini bilish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Turk xoqonligi eng buyik imperiyalardan biri bo'lgan hamda doimiy janglar olib borilgan, o'rta osiyo balki g'arbda ham harbiy yurishlar olib borgan davlatlardan bittasi ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gumilev L. N., Drevniye tyurki, 1967;
2. Nasimxon Rahmon, Turk xoqonligi, T., 1993;
3. Ko'chanov Ye. I., Kochevie gosudarstva ot gunnov do manchjurov, M., 1997;
4. Asadov F. M., Arabskiye istochniki o tyurkax v rannem srednevekovye, Baku, 1993;
5. Shoniyozov K., O'zbek xalqining shakllanish jarayoni, T., 2001.
6. G'aybullaboboyorov. O'zME, Toshkent, 2000-2005.



FIZIKA FANINI O'QITISHDA "SOFT SKILLS" VA "HARD SKILLS" KO'NIKMALARINING AHAMIYATI

Abdikarimova Xurshida Abdashimovna
Toshkent viloyati Olmaliq shahar
kasb-hunar maktabi fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada fizika fanini o'qitishda "soft skills" va "hard skills" ko'nikmasining ahamiyati, har bir kasb egalari uchun bo'lgan muhim omillari, ushbu ko'nikmalarning o'zaro farqli jihatlari hamda ushbu ko'nikmalarni shakllantirish uchun xizmat qiladigan asosiy ma'lumotlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: "soft skills", "hard skills", kompetensiya, kasbiy ko'nikmalar, umumiy ko'nikmalar.

Hozirgi kunga qadar ko'pchilik odamlar kelajak muvaffaqiyatlarini o'zining kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratiga bog'laydi va bu tabiiy nuqtai nazardan to'g'ri. O'z ishini ustasigina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Ammo shu bilan birga, kasbiy va umuman muvaffaqiyatli bo'lishning yana bir tomoni bor – va bu soft va hard ko'nikmalaridir.

Fizika ta'limi yonalishidagi kasb-hunar maktablarida o'quvchilar kelgusida o'z kasbini to'liq egallagan, doimiy o'sib borishga yo'naltirilgan mutaxassis bo'lib, uning kasbiy kompetensiyalarining asosi esa fizika bo'yicha fundamental bilimlar, fizik eksperimentni tashkil etishga layoqat bo'lishi kerak. Fizika ta'limi yo'nalishidagi bakalavriat bitiruvchisi o'zi tanlagan ta'lim yo'nalishiga muvofiq maxsus kompetensiyalarni egallashi kerak, bular esa boshqalar qatori fizika fanini chuqur egallashga doir bilimlarni hamda ilmiy-metodik kompetensiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Xususan, o'ziga xos ta'lim, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalari bilan birgalikga aynan fizika fani asosida o'quv jarayonini amalga oshirishga tayyorlanayotgan o'quvchilar fizikaning fan sifatidagi konseptual-nazariy asoslarini, uning fan sifatidagi o'rnini juda yahshi bilishlari shart. Undan keyingi darajada o'quv rejadagi boshqa o'quv fanlari va qadriyatlarning umumiy sistemasini o'zlashtirib olishlari kerak. Yangi o'qquv dasturlariga muvofiq o'quvchilarda:

- fizika asoslarini efigra uzatishga tayyor bo'lish;
- maxsus axborot-kommunikatsiyani oquv jarayonida qo'llash malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi;



- fizika bo'yicha o'quv-uslubiy majmualarni baholash va tanlash;
- o'quv jarayonini turli xil ta'lim texnologiyalari bilan loyihalash kabi ko'nikmalarini shakllantirish zarur bo'ladi.

Xususan, ta'limning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy o'ziga xos funksiyalarini fizika fani bilan mujassamlashtirib o'quv jarayonini amalga oshirishga fizikaning fan sifatidagi konseptual-nazariy asoslarini, uning fan sifatidagi o'rnini mukammal bilishi shart deb hisoblayman.

Kompetentsiya deganda mutaxassisning bilim, kasbiy va hayotiy tajribasi, qadriyatlari va moyilliklaridan foydalangan holda kasbiy faoliyatning real vaziyatlarida yuzaga keladigan kasbiy muammolar va vazifalarni hal qilish qobiliyati bilan tavsiflangan kasbiy tayyorgarlik darajasining ajralmas xususiyati tushuniladi.

Ta'limda Fizika fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

--fizika ta'limining fan-texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohalari va hayotda tutgan o'rni haqida mantiqiy fikrlay olish qobiliyati, aqliy rivojlanishi, o'zini o'zi anglash salohiyatini tarkib toptirish, ularda milliy, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda ijtimoiy hayoti va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashi, ulardan kundalik hayotlarida foydalanishga o'rgatish;

O'quvchilarda tayanch va fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish;

--o'quvchilarning olamning fizik manzarasiga oid dunyoqarashini kengaytirish bilan amaliy faoliyatlarini bog'lagan holda fizik bilimlarni hayotga tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Fizika fanini o'qitishning vazifalari:

- o'quvchilarda atrof-olamni o'rganishga ishonch tuyg'ularini hosil qilish;
- tabiatdagi jarayon va hodisalarni kuzatish, tahlil qilish, fizik hodisalarni o'rganishda asboblardan to'g'ri foydalana olish, fizik tushuncha va kattaliklarni matematik formulalar bilan ifodalay olish, fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotdagi tatbiqi orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini rivojlantirish, kelajakda insoniyatni fan va texnologiyalar yutuqlaridan to'g'ri foydalanishda fan va texnika ijodkorlariga hurmat bilan qarash, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, umumbashariy madaniyat elementlarini tarbiyalashdan iborat.

Fizika, Astronomiya fani bo'yicha bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari.

1. Fizik jarayon va hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:



B1

Fizik va astronomik kattaliklarning Xalqaro birliklar sistemasi (SI)ni, matematik ifodalarini mantiqiy bog‘liq holda tushunadi va tushuntira oladi;

mexanika, molekulyar fizika va termodinamika asoslari, elektrodinamika, tebranishlar va to‘lqinlar, optika, atom va yadro fizikasi asoslariga oid kengaytirilgan asosiy tushunchalar, atamalar, fizik kattaliklar va ularning birliklari, qonuniyatlar, bog‘lanish formulalarni biladi va ularni amaliyotda qo‘llay oladi.

Astronomik obyektlarning ko‘rinma harakatlarini kuzata oladi, olgan bilimlarini tushuntira oladi;olam tuzilishining geliotsentrik tizimi bo‘yicha Quyosh tizimining tuzilishini bayon qila oladi;osmon jismlarini o‘rganish orqali kashf etilgan qonuniyatlarni hamda ularning ahamiyatini tushunadi va tushuntirib bera oladi.

B1+

Fizik va astronomik kattaliklarning Xalqaro birliklar tizimi (SI)ni, matematik ifodalarini mantiqiy bog‘liq holda tushunadi va tushuntira oladi. Olingan nazariy va amaliy bilimlardan fan, texnika va kundalik turmushda foydalana oladi. Fizik qonun, qoida va qonuniyatlarning matematik ifodasini bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tkaza oladi va tushuntirib bera oladi.

Fizika bo‘limlariga oid kengaytirilgan asosiy tushunchalar, atamalar, fizik kattaliklar va ularning birliklari va qonuniyatlarini amaliyotda qo‘llay oladi.

Astronomik obyektlarning ko‘rinma harakatlarini kuzatadi, tahlil qiladi va olgan bilimlarini tushuntira oladi;olam tuzilishining geliotsentrik tizimi bo‘yicha Quyosh tizimining tuzilishini bayon qila oladi;osmon jismlari, ularning ko‘rinma harakatini o‘rganish orqali kashf etilgan qonuniyatlarni hamda ularning ahamiyatini tushunadi va tushuntirib bera oladi. Tegishli qonunlarga doir masalalarni yecha oladi.

2. Tajribalar o‘tkazish, fizik kattaliklarni o‘lchash va xulosalar chiqarish kompetensiyasi:

B1

Mustaqil ravishda tajriba o‘tkaza oladi va olingan natijalarni solishtiradi, natijalarini jadval va grafik ko‘rinishda tasvirlay oladi, tegishli xulosalar chiqara oladi;

fizik kattaliklarni aniqlash usullarini biladi.

Oyni kuzatish orqali uning sirt obyektlari (tog‘lar, dengizlar va kraterlar) haqida bilimlarga ega bo‘ladi;planetalarning koinot apparatlari yordamida olingan suratlari orqali ularning sirt obyektlari haqida xulosalar bera oladi.Nazariy bilimlar



asosida osmon jismlarigacha bo'lgan masofa, ularning o'lchami va massasini hisoblashga doir masalalar yecha oladi.

B1+

Mustaqil ravishda tajriba qurilmalarini yig'adi, tajriba o'tkaza oladi va olingan natijalarni solishtira oladi, tahlil qila oladi;

--natijalarni jadval va grafik ko'rinishda tasvirlay oladi va tegishli xulosalar chiqara oladi;

--fizik kattaliklarni aniqlash usullarini biladi.

Fizik kattaliklarning bevosita o'lchangan va bilvosita hisoblab topilgan qiymatlarini solishtira oladi, o'lchash va hisoblash xatoliklarini aniqlay oladi;

--fizik kattaliklarni o'lchovchi asboblarning ishlash prinsipini biladi;

--tadqiqotchilik xususiyatlarini namoyon qila oladi.

Osmon jismlarini kuzatish orqali ularning sirt obyektlari haqida bilimlarga ega bo'ladi;

Osmon jismlarining koinot apparatlari yordamida olingan suratlari orqali ularning sirt obyektlari haqida xulosalar bera oladi.

3. Fizik bilimlar va asboblardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi:

B1

Fizika fanining nazariy asoslarini kundalik turmush va kasbiy sohalarga tatbiq eta oladi;

fanga oid oddiy darajadagi masalalarni yecha oladi;

Jamol Kamol "taronalar"ining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular shakliy jihatdan 11 bo'g'inli turkumda yozilgan.

*Malomat qildilar bizni, malomat,
Malomatpeshalar bo'lsin salomat.
Ko'ngil, o'ksinmagil, shukrona ayla,
Bu ham Haq himmatidin bir alomat.* (246-b.)

Shoir yuqoridagi misralarda kishilar tomonidan malomat qilinganini aytar ekan, u taqdiridan nolimaydi, aksincha, ularga omonlik tilaydi va ko'nglini shukronalik bilan tinchitib, bu ham Allohning bir sinovi, ne'mati ekanligiga ishora qiladi.

*Musulmonning so'zi – Allohu akbar,
Yoniq ko'ngil ko'zi – Allohu akbar.
Haqiqat qayda deb ovvora bo'lma,
Haqiqatning o'zi – Allohu akbar.* (246-b.)

"Allohu akbar" uchta tasbehning oxirgisi, "Olloh buyuk" ma'nosini beradi. Shoir uni "musulmonning so'zi", "yoniq ko'ngil ko'zi", "haqiqatning o'zi" deya metaforizatsiya qiladi.

Jamol Kamol ijodiy individualligini tarona yangi badiiy shakli belgilab beradi. Bunda shoirning ham mumtoz, ham zamonaviy lirik janrlar ijodkori sifatidagi qiyofasi namoyon bo'lgan. Shu jihatdan taronani ruboiy va to'rtlikning uyg'un shakli deyish mumkin.

² <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/tarona/>

³ Камол Ж. Яна кўнглимда ул ой. – Т.: Meriyus, 2010. – Б.246. (Кейинги мисоллар шу манбадан олинади ва бети қавс ичида кўрсатилади).



Azim Suyunning so‘nggi yillardagi ijodida badiiy shakl yo‘lidagi yangilanishlarni kuzatish mumkin. Adabiy jarayonning nozik kuzatuvchisi Q.Yo‘ldoshning fikricha: “She’riy shakl ustidagi izlanishlar natijasida u poetik ifodaning “Qayirma” deb atalmish qulay janrini kashf etdi”⁴. Shoirning “Ey do‘st yoxud Azimnoma” kitobidagi ijod namunalari muallif “qayirmalar” deb nomlaydi. E’tiborli jihati esa Azim Suyun bu badiiy shaklning ham she’riy, ham nasriy namunalari yaratgan. “Qayirma” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “qayriladigan, bukiladigan” deb izohlangan⁵. Bundan tashqari, “qayish”lik, ya’ni pishqlik, puxtalik kabi ma’nolarni ham anglatadi. Shoir bitiklarida ham shu xususiyat kuzatiladi.

“Azim Suyunning qayirmalarini ko‘pdan buyon kuzatib kelaman. Bu qayirmalar Sharq mumtoz she’riyati ummonidan “suv ichayotgani”, ya’ni Umar Xayyom, Sa’diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur kabi ulug‘ donishmandlarimiz asarlaridagi donolik, teranlik, ixchamlik, lo‘ndalik kabi fazilatlarga eshligi, ayni paytda, eng qadimiy davrlarda tog‘- toshlarga o‘yib yozilgan bitiklardek aniqligi bilangina emas, balki shakldagi yangiligi bilan ham e’tiborga loyiqdir”⁶. Darhaqiqat, shoir qayirmalari nomlanishi va ular qatidagi poetik fikr zalvori ham badiiy shakl yangilanishini o‘zida ifoda etadi. Bu fikrlar pishiq, hayotiy va falsafiy mohiyat kasb etishi jihatidan aforizmlarga hamohanglik qiladi.

Ey do‘st!

Desangki sirimni bilmasin ag‘yor,

Uni hatto do‘stga qilmagil oshkor.

Oqillar gapini qilmagan edim,

*Juda ko‘p pushmonlik eshagin mindim*⁷.

Pand-nasihat ruhidagi ushbu misralar mazmunidan maqolga xos umumlashma ma’no ifodalanganligini kuzatish mumkin. Ya’ni inson hayotda hammaga ham ishonib sirini aytavermasligi lozimligi, donolar gapiga kirmasligi oxir-oqibat pushaymonlikka sabab bo‘lishi misralarga singdirilgan.

Diqqatga loyiq jihati shundaki, 4 misradan iborat deyarli har bir to‘rtlik boshida takrorlagan “Ey do‘st!” tarzidagi undalma she’rni 5 misrali she’rga aylantirgan. “Ey do‘st!” undalmasi shunchaki shakliy originallik maqsadida

⁴ Йўлдош Қ. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: “Академнашр”, 2018. – Б.434.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.212.

⁶ Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б.3.

⁷ Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б.144 (Keyingi misollar shu manbadan olinadi va qavs ichida beti ko‘rsatiladi).



qo‘llangan xitob emas, balki har bir she‘rda aks etgan tuyg‘uning zalvorini, fikrning salmog‘ini oshirishga yo‘naltirilgan poetik unsurdir”⁸. Binobarin, shoir ritorik murojaat orqali poetik fikr qaratilgan shaxsni aniqlaydi. O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ham “Ey do‘st!” undalmasiga to‘xtalar ekan, u turli o‘rinlarda turlicha ohang va ma‘no kasb etganligini, bu undalma to‘rtlikni ma‘no va shakl jihatidan yangilaganligini, shu bilan birga, Sharqda ming yillardan beri o‘zgartirib bo‘lmaydiganday tuyulgan to‘rtlikning yangicha ko‘rinishi ekanligini ta‘kidlab o‘tgan edi⁹. Haqiqatan, “Ey do‘st” murojaatiga shoir bir necha ma‘noni yuklaydi. Jumladan, u chin do‘st, dildosh, sirdosh sifatida ko‘rinadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub “Qisqa satrlar” sarlavhasi ostida berilgan she‘rlarni ham individual uslubiy izlanishlarning namunasi sifatida ko‘rsatish mumkin. Bu she‘rlar nomidan ko‘rinib turganidek, 4 ta qisqa satrlardan tashkil topgan:

*Men dardni hech kimdan
Ko‘chirmadim, yo‘q,
Yozganimdan ko‘ra
O‘chirganim ko‘p*¹⁰.

Shoir yuqoridagi qisqa satrlari ijod mohiyati haqidadir. Bu misralar O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri E.Vohidovning to‘rtliknavis shoir T.Yo‘ldoshga bag‘ishlangan:

*She‘rning o‘zi to‘rt satr,
To‘rt ajoyib zo‘r satr.
Shoir odam o‘zini
To‘rt satrla ko‘rsatur*¹¹, –

degan misralariga hamohang jaranglaydi. Mazkur to‘rt satr ijod mohiyati, ijodkor o‘zligini aks ettiradi. S.Sayyid o‘ziga talabchan ijodkor. Bu bilan shoir o‘ziga nisbatan o‘ta talabchan bo‘lib, yozganlaridan ko‘ngli to‘lmaganiga ishora qiladi.

*Umr – bir sog‘inchdir,
Umr – bir og‘riq.
U tomoni zangor,
Bu tomoni sorig‘. (313-b.)*

⁸ Йўлдош Қ. Қайирма – ҳикмат ва бадиият уйғунлиги. Китобда: Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б.436.

⁹ Оripov A. Qayirma – mustaqil janr. // Tafakkur. – Toshkent, 2003.

¹⁰ Саййид С. Асарлар. I жилд. – Т.: Шарқ, 2018. – Б.313. (Keyingi misollar shu manbadan olinadi va qavs ichida beti ko‘rsatiladi).

¹¹ Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.40.



Kontrast usuli asosiga qurilgan yuqoridagi satrlarda shoir hayot, umr haqida falsafiy mushohada yuritadi. Inson hayoti faqat tep-tekis yo‘ldan iborat emas. Unda yorug‘ va qorong‘u kunlar bor. Shuning uchun ham shoir sog‘inch va og‘riqni, zangor va sorig‘ni qarama-qarshi qo‘yadi.

Bulbulni qarg‘aga

Qo‘shib bo‘lmaydi,

Qarg‘a bo‘lgan joyda

Qo‘shiq bo‘lmaydi. (313-b.)

Yuqoridagi misralarda “q” tovushi bilan boshlanadigan so‘zlar alliteratsiya san’ati uchun asos bo‘lgan. Bunda bulbul ramziy ma’noda yaxshilikni, qarg‘a esa yomonlikni ifodalab kelmoqda.

Ko‘rinadiki, S.Sayyid qisqa satrlari hayotiyliги, muхtasarligи, kompozitsion butunligи, tugalligи bilan zamonaviy adabiyotdagi to‘rtliklar qatorini to‘ldiradi. Ularning o‘ziga xosligи shundaki, qisqa satrlarning har bir misrasida ikki yoki uch so‘z bo‘ladi. Ular orqali shoir hayot, undagi inson, yaxshilik, yomonlik haqida falsafiy xulosalar chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Назарова Д. Жамол Камол шеърини поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2021.
2. Камол Ж. Яна кўнглимда ул ой. – Т.: Meriyus, 2010.
3. Йўлдош Қ. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: “Академнашр”, 2018.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008.
5. Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Академнашр, 2018.
6. Йўлдош Қ. Қайирма – ҳикмат ва бадиият уйғунлиги. Китобда: Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Академнашр, 2018.
7. Oripov A. Qayirma – mustaqil janr. // Tafakkur. – Toshkent, 2003.
8. Саййид С. Асарлар. I жилд. – Т.: Sharq, 2018.
9. Воҳидов Э. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. – Т.: Шарқ, 2000. – Б.40.
10. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/tarona/>



YERYONG‘OQ HOSILINI BIR O‘TISHDA KOVLASH VA DUKKAKLARINI POYASIDAN AJRATISH MASHINALARI

Xusenova Shaxzoda O‘ktam qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Kamolova Nodira Xayrullo qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Toshtemirov Jo‘rabek Mamarasul o‘g‘li

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yereng‘oq hosilini yig‘ishtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida yaratilgan yereng‘oq hosilini yig‘ishtirish mashinalarining tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yerong‘oq hosili, yereng‘oq palagi, dukkagi, yereng‘oq yig‘ishtirish mashinasi, ish organlar, kovlagich, rolik, tasmali uzatma, yo‘naltirgich, bunker.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son farmoniga asosan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat havfsizligi sohasida ko‘plab islohotlarni amalga oshirish belgilangan. Iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini yanada kuchaytirish, aholining farovonligini yuksaltirish ko‘p jihatdan bizning mavjud resurslardan, birinchi navbatda, elektr va energiya resurslaridan qanchalik tejimli foydalana olishimizga bog‘liqdir. Qat’iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag‘batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish mumkin bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun hozirgi davrdagi eng muhim vazifa – energiya va resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejaydigan texnika vositalarini ishlab chiqish hamda joriy etishdan iborat [2]. Ma’lumki respublikamizda dukkakli ekinlarga ya’ni moyli o‘simliklarga bo‘lgan extiej yildan yiliga ortib bormoqda. Jumladan respublikamizda hozirgi kunga kelib 21 ming gektardan ortiqroq maydonlarda yereng‘oq yetishtirilib, gektariga 23-32 sentenerdan hosil olinmoqda. Yereng‘oq mavsumiy o‘simlik xisoblanib bir ikki marta hosil olish imkoni mavjud [3,4]. Respublikamizda yereng‘oqni yig‘ishtirib olish jaraeni asosan qo‘l mehnati bilan bajariladi. Shu sababli yereng‘oq hosilini yig‘ishtirishni mexanizatsiyalash



maqsadida adabiётlar hamda patent izlanishlarning taxlillari o‘tkazildi. O‘tkazilgan taxlillar natijasida ushbu maqolada xorijiy davlatlarda yaratilgan yereng‘oq hosilini yig‘ishtiradigan mashinalarning tahlili keltirilgan. S.S.Xrush (Rossiya Federatsiyasi) olimi tomonidan olib borilgan tadqiqotlari natijasida yereng‘oq hosilini yig‘ishtiradigan mashina yaratgan va unga mualliflik guvoxnomasi olgan.

Kovlovchi panja yereng‘oq dukkaklarini kovlab oladi, so‘ngra yo‘naltirgich erdamida tasmali uzatmaga uzatadi, tasmali uzatma yereng‘oq poyalarni mahkam siqib ma‘lum burchak ostida yuqori tomonga qarab xarakatlantiradi hamda xarakatlanish jaraenida barmoqchalar poyalarning ildizlarida joylashga dukkaklarni urib bunkerga tushiradi. O‘tkazilgan patent informatsion taxlillar yereng‘oq hosilini yig‘ishtirish mashinalarini yaratish va takomillashtirish, bo‘yicha ko‘plab xorijiy davlat olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishildi va o‘rganildi. Jumladan Xitoy xalq respublikasi olimlari Kuo-Ming Wang, Taipei, Taiwan tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida yereng‘oq hosilini yig‘ishtiradigan mashina ishlab chiqilgan va unga №4607703 raqamli guvoxnoma olgan. Yuqoridagi mashinalarni tuzilishining murakkabligi, metal sarfining ko‘pligi, tannarxining qimmatligi, energiyaresurstejamkor masligi, respublikamiz iqlim sharoitiga mos kelmasligi, taroqning aylanish tezligi, barmoqlar oraliq masofasi, ularning uzunligini o‘lchamlari ilmiy asoslanmaganligi uning asosiy kamchiliklariga kiradi. Yereng‘oq hosilini yig‘ishtirib olish bo‘yicha ilmiy-adabiётlar hamda patent informatsion izlanishlarning tahlillari respublikamiz sharoitida ishlay oladigan energiyaresurstejamkor yereng‘oq hosilini yig‘ishtirish mashinasini yaratish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish joriy etish orqali yereng‘oq hosilini yig‘ishtirish jaraeni mexanizatsiyalashga erishilishini ko‘rsatdi. Taklif etilaetgan mashina Namangan muhandislik-qurilish instituti olimlari hamda —BMKB|| argomash MCHJ korxonasi muhandislari bilan hamkorlikda yasalgan bo‘lib, dehqon va fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan yereng‘oq hosilini bir o‘tishda kovlab poyasidan dukkaklarini ajratib oladi hamda qulay sharoitda tez va sifatli nobud qilmasdan yig‘ishtirib olish imkonini beradi. O‘tkazilgan dastlabki sinovlar natijasida ishlab chiqilgan mashina bir o‘tishda yereng‘oqni kovlab va poyasidan dukkaklarini ajratishni talab darajasida bajarishini ko‘rsatdi hamda bu jaraenlardagi inson qo‘l mehnati batamom bartaraf etishni ta‘minladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF5853-sonli —O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni.

2. Mansurov, M. T., Otaxanov, B. S., Xojiyev, B. R., & Nishonov, F. A. (2021). Adaptivnaya konstruktsiya strippera dlya uborki araxisa. Mejdunarodniy jurnal innovatsionnix analizov i novix texnologiy, 1(4), 140-146.

3. Abdulxayev X.G‘. Pushtalarga ishlov beruvchi mashina rotatsion yumshatkichi tortqisining gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagini asoslash // Irrigatsiya va melioratsiya. – Toshkent, 2017. – № 1(7). – B. 57-58.

4. Xasanov Majidxon Maxmudxon O‘g‘li, Yokubjonov Faxriddin Voxidjon O‘g‘li, & Maxmudjonov G‘anijon Erkin O‘g‘li (2022). Texnologik mashina va mexanizmlaridagi yeyilish jaraenlarining tahlili. Mexanika i texnologiya, 3 (8), 69-75.



KARTOSHKKA O‘SIMLIGINI IN VITRO SHAROITIDA APIKAL MERISTEMADAN KO‘PAYTIRISH

Ikromaliyev Asadbek G‘anijon o‘g‘li
Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada urug‘lik kartoshka birlamchi avlodini yetishtirish maqsadida kartoshka o‘simligidan apikal meristema ajratib olish, ularni sterillash va ozuqa muhitiga o‘tkazish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Meristema, apikal, in vitro, hujayra, differensiya, eksplant, ozuqa muhit.

Urug‘lik kartoshkaning birlamchi boshlang‘ich avlod materialini yetishtirish uchun kartoshka o‘simligidan biotexnologik amaliyot usulida apikal meristema ajratib olish sog‘lom material manbaasi hisoblanadi. Apikal meristemadan olingan in vitro o‘simlik materiallari keyingi bosqichda mikroko‘paytirish usullari orqali ko‘paytiriladi. Bu usul orqali o‘simliklardan zamburug‘, bakterial va virusli infeksiyalardan holi bo‘lgan urug‘lik material olish imkonini beradi. Tadqiqot o‘tkazish joyi va uslubi. Tadqiqotlar Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Biotenologiya laboratoriyasida Apikal meristemadan ko‘paytirilib o‘rganildi. Olib borilgan tajribalar kartoshka nav namunalari biometrik o‘lchovlari ko‘rsatgichlarini aniqlashda B.J.Azimov —Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o‘tkazish metodikasill uslubiy qo‘llanmalaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari. Apikal meristema (asosiy va lateral) o‘simlik poyasining uchki qismida joylashgan. Meristemalarning bunday joylashishi ontogeneznining dastlabki bosqichlarida aniqlangan. Urug‘langan tuxum bo‘linishi paytida embrion (meristema) hujayralaridan iborat proembrion (pro-embrion) hosil qiladi. Proembrion tanasining differensiya jaraenida apikal meristemalarni hosil qiluvchi meristematik hujayra guruxlari birlamchi kurtakning tepasida va birlamchi ildizning ichida joylashadi. Apikal meristema o‘simlik rivojlanishida ularning poyasi, kurtaklari, ildizi va ularning shoxlanishida eng muhim ma’lumotga ega bo‘ladi. Bir dona hujayrada o‘simlik haqida to‘liq ma’lumot bo‘lib , undan yetuk o‘simlik olinadi. Har bir en kurtak va ildiz ham apikal meristemaga egadir. Uchki meristema o‘simlik haqidagi barcha ma’lumotlarni o‘zida jamlaydi.

O‘simlik materialini olish maqsadida termoterapiya usuli qo‘llaniladi. O‘suvchi sog‘lom eksplantlar olish apikal meristema usulini qo‘llash bilan amalga oshiriladi.



Apikal meristema usuli kartoshka o'simligidagi o'suv nuqtasining 100-200 mkm kattalikdagi eksplant- to'qimasini olish bo'lib, ajratilgan bo'linuvchi hujayralarning apikal zonalaridan o'simliklarni o'stirishga asoslangan. O'simlikning apikal meristemi unib chiqqan nihollardan va yashil novdalardan ajratiladi. Yashil nihollardan meristemani ajratib olish texnik jihatdan osonroq, chunki ularning to'qimasi aniq ko'rinadi. Olingan eksplantlar sterillash jara'ida sterillovchi eritmalar ta'siriga chidamli bo'ladi. O'simlikdan apikal meristema olish uchun poyani quyidagi sterillovchi moddalar bilan ishlov beriladi:

1. Timerosal 0,0005 -0,001 mg/l,
2. Gipoxlorid (Na èki Sa li tuzi) 1-10 % li eritmasi,
3. Kumush nitrat (Ag NO₃) 0,001- 0,005 % va etil spirti 30 -70% li eritmasi.

Mineral ozuqa muhitining tarkibi meristemalarni zarur oziq moddalar bilan ta'minlanishi kerak. Kartoshka o'simligi meristemalari o'sib, rivojlanishi uchun eng optimal ozuqa muhiti bu Murasiga-Skoog mineral asosli ozuqa muhitidir. Ushbu ozuqa muhitining asosiy tarkibiy qismi makro va mikro tuzlari, vitaminlar, organik moddalar va o'suv regulyatorlaridan tashkil topgan. Ozuqa muhiti tarkibi makro tuzlardan ammoniy nitrat, kaliy nitrat, magniy sul'fat, kaliy difosfat, mikro tuzlaridan esa kaliy yodid, kobalt xlorid, natriy molibdat va mis sul'fatdan tashkil topgan. Vitaminlar guruhiga piridoksin (V 6), V1 askorbin kislotasi, mezoinozitol, nikotin kislotasi (RR), biotin qo'shiladi. Zarur komponentlar tarkibiga oz miqdorda saxaroza hamda fitoagar qo'shiladi. Aminokislotalar manbai bo'lgan kazein gidrolizat va mio-innozitol meristemaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kartoshka eksplantlarining o'sishi uchun rN 5,7 optimal hisoblanadi. rN dagi og'ishlarni 0,1% n KON va 0,1 % n HCl qo'shib, optimal holatga keltirish kerak. Kartoshka meristemalari o'suv davrida kislotalanadi. Ozuqa muhiti tarkibiga o'simlikning o'sib rivojlanishini ta'minlab beradigan o'sish regulyatorlari ya'ni fitogarmonlardan foydalanish orqali meristemalarning o'sishi sezilarli darajada tezlashadi. Ozuqa muhitining muhim tarkibiy qismlaridan bo'lgan auksin va sitokininhujayralarning bo'linishini rag'batlantiradi, kurtaklarning differensiyasini tezlashtirishida, barglarning rivojlanishida, yashil tusga kirishi va ildiz qismlarini rivojlanishida asosiy stimulyatorlar bo'lib hisoblanadi. Apikal meristemada virus konsentratsiyasi ancha past bo'ladi, shuning uchun to'qimalar rivojlanish samaradorligi yuqori bo'ladi. Virussiz apikal meristemadan olingan o'simlik, ochiq sharoitda o'stirilgan nihollarga nisbatan o'sishi, rivojlanishi jadal bo'ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Апикальные меристемы побега. Справочник химика 21
2. Апикальные меристемы AGROVOC
3. Мурашëв В.В. 2005Г. Морфогенетический цикл апикальных меристем. Типы онтогенеза побегов. 4. Калашникова Е. Клеточная инженерия растений 2-е издание.
5. Diagram-Quizlet. Меристематические ткани.



MINERAL VA ORGANIK O'G'ITLAR XAQIDA TUSHINCHALAR VA ULARNI BIRGALIKDA QO'LLASH

Ikromaliyev Asadbek G'anijon o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Azimova Umida Nosirjon qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Annotatsiya: Mineral o'g'itlar va go'ngni birgalikda qo'llash ularni alohida-alohida qo'llashdagiga qaraganda yaxshi samara beradi. Bu birinchidan, go'ng ta'sirida tuproqdagi mikrobiologik jarayon faolligining kuchayishi va ikkinchidan, mineral o'g'itlar ta'sirida go'ng va tuproqdagi organik moddalarning tezroq parchalanishi bilan bog'liqdir. Mineral va organik o'g'itlarni birgalikda qo'llashga ayniqsa, tuproqda oziq moddalari konsentratsiyasining oshib ketishiga o'ta sezgir, lekin butun o'sish davri davomida ularni yetarli miqdorda bo'lishini talab qiladigan bodring, piyoz, makkajo'xori kabi ekinlar talabchandir.

Kalit so'zlar: Mineral o'g'itlar, organik o'g'itlar, go'ng, tuproq, innovatsion ishlanma, modda, mahalliy o'g'it

Abstract: The combined use of mineral fertilizers and manure gives better results than when they are used separately. This is due, firstly, to the increase in the activity of microbiological processes in the soil under the influence of manure, and secondly, to the faster decomposition of manure and organic matter in the soil under the influence of mineral fertilizers. The combined use of mineral and organic fertilizers is particularly demanding for crops such as cucumbers, onions, and corn, which are very sensitive to the increase in the concentration of nutrients in the soil, but require their sufficient amount during the entire growth period.

Key words: Mineral fertilizers, organic fertilizers, manure, soil, innovative development, substance, local fertilizer

KIRISH

Mineral o'g'itlar va go'ngni birgalikda qo'llash ularni alohida-alohida qo'llashdagiga qaraganda yaxshi samara beradi. Bu birinchidan, go'ng ta'sirida tuproqdagi mikrobiologik jarayon faolligining kuchayishi va ikkinchidan, mineral o'g'itlar ta'sirida go'ng va tuproqdagi organik moddalarning tezroq parchalanishi bilan bog'liqdir. Mineral va organik moddalar birgalikda qo'llanilganda, fosforli o'g'itlarning tuproq bilan mustahkam birikmalar hosil qilishi kamayadi. Go'ng bilan



tuproqqa ma'lum miqdorda mikroelementlar kelib tushadi, qaysiki, mikroo'g'itlar qo'llash muammosini deyarli hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Go'ngning parchalanish jarayonida ajralib chiqadigan karbonat angidridi havo tarkibiga o'tadi va o'simliklarda fotosintez jarayonining kuchayishi uchun xizmat qiladi.

Mineral va organik o'g'itlarni birgalikda qo'llashga ayniqsa, tuproqda oziq moddalari konsentratsiyasining oshib ketishiga o'ta sezgir, lekin butun o'sish davri davomida ularni yetarli miqdorda bo'lishini talab qiladigan bodring, piyoz, makkajo'xori kabi ekinlar talabchandir. Go'ng tuproqning asosiy komponentlaridan bo'lmish gumus miqdoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mahalliy o'g'it solinmagan maydonlarda gumus miqdorining yildan-yilga kamayib borishi kuzatiladi. Respublikamiz paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining ta'kidlashicha, umuman o'g'it qo'llamaslik yoki mineral o'g'itlarga ortiqcha ruju qo'yish oqibatida faqatgina keyingi 50-60 yil ichida tuproqdagi gumus miqdori 25-50% ga (100% ga nisbatan) kamaygan. Amalga oshirilgan ko'p yillik stasionar dala tajribalarining natijalari ham mazkur fikrning to'g'riligini tasdiqlaydi.

Tuproqda gumus hosil bo'lishi almashlab ekish turi, solinayotgan mineral va mahalliy o'g'itlarning miqdoriga bog'liqdir. Go'ng fonida tuproqqa qo'shimcha ravishda azotli o'g'itlar solish lozim, chunki o'simliklar birinchi yilda go'ng tarkibidagi azotni fosfor va kaliyga qaraganda juda kam o'zlashtiradi. Go'ngni chopiqtalab ekinlarga qo'llash yaxshi samara beradi, chunki qator oralariga ishlov berilganda go'ng tezroq minerallashadi va undan o'sish davri uzunroq bo'lgan ekinlar unumli foydalanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi texnologiyalar Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarishining jadalashuv darajasiga bog'liq ravishda qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda turli texnologiyalardan foydalaniladi.

Ekstensiv texnologiyalar o'g'itlar va boshqa kimyoviy vositalarni qo'llamasdan tuproqning tabiiy unumdorligidan foydalanishga mo'ljallangan. Oziqa moddalarining yetishmasligini bartaraf etish maqsadida oz miqdorda mineral o'g'itlardan foydalanish mumkin. Normal texnologiyalar tuproq va agrolandshaft resurslari unumdorligini hamda biologik azotning manbalarini o'rganish bilan bir qatorda tuproqlar va agrolandshaftlar degradatsiyasining oldini olishga (eroziya, defilyatsiya va ifloslanish oqibatlari), kimyoviy melioratsiyalash va organik o'g'itlar qo'llash orqali hosildorlikni pasaytiruvchi omillarni, ya'ni noqulay tuproq muhiti va oziqa moddalarining yetishmasligini bartaraf etishga, o'simliklarni eng xavfli bo'lgan kasalliklar, zararkunandalar va begona o'tlardan himoya qilishga qaratilgan.

Mineral o'g'itlar tuproqdan hosil bilan olib chiqib ketilyotgan oziqa moddalarining o'rnini to'ldirish uchun olinadigan mahsulotga ketgan xarajatni



yuqori darajada qoplay olishni ta'minlaydigan miqdorda qo'llaniladi, bunda navning biologik imkoniyati 40-50% dan kam bo'lmagan miqdorda realizatsiya qilinadi. Jadal texnologiyalar – bu nafaqat tabiiy va texnik resurslar hisobiga balki hosil bilan tuproqdan olib chiqib ketilyotgan oziqa moddalarning o'rnini to'ldirish uchun tegishli miqdorda o'g'itlar qo'llash, shuningdek, eng xavfli kasallik, zararkunanda va begona o'tlarga qarshi kurash choralarini amalga oshirish yo'li bilan hosildorlik va uning biologik imkoniyatini 60-65% dan kam bo'lmagan miqdordagi sifatli mahsulot olishga mo'ljallangan.

Yuqori jadal texnologiyalar – o'g'itlarning iqtisodiy rentabelligi va ularni qo'llash hisobiga rejalashtirilgan hosildorlikka erishish maqsadida o'simliklarning himoyasi va uning oziqa elementlariga bo'lgan talabni to'liq ta'minlashga oid barcha agrotexnik biologik va kimyoviy tadbirlar kompleksini qo'llash hisobiga hosildorlik bo'yicha navning biologik imkoniyatining 80-85% dan kam bo'lmagan yuqori sifatdagi mahsulotlar olishga mo'ljallangan. Bunday darajadagi texnologiyalar qishloq xo'jalik mashinalarining eng yaxshi komplekslarini qo'llashga va fan texnika taraqqiyotining barcha yutuqlarini joriy qilishga mo'ljallangan. O'g'it qo'llash turlari, usullari va muddatlari.

O'g'it qo'llash tizimida ishlatiladigan iboralardan to'g'ri foydalanish lozim - asosiy o'g'itlash (ekishgacha, ekish bilan);

- qatorlab o'g'itlash (ekish bilan birga);

- qo'shimcha oziqlantirish (ekinlarning o'sish davrida).

O'g'itlarni tuproqqa quyidagi muddatlarda solish mumkin:

-kuzda; bahorda; yozda; belgilangan ma'lum oylarda. O'g'itlashning asosiy usullari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- yoppasiga (sochma); joyiga (uyalab, o'chog'iga, qatorlab);

lokal -tasmasimon; zaxiraviy; mexanizmlar yordamida; havodan va h.k.

O'g'itlarni tuproq bilan aralashtirishda plug, kultivator-oziqlantirgich, diskali va tishli tirma kabi moslamalardan foydalaniladi.

Ko'p hollarda o'g'it meyori (normasi) va o'g'it miqdori (dozasi) tushunchalari almashtirib yuboriladi. O'g'it meyori – ekinga butun o'sish davri davomida beriladigan o'g'it miqdorining ko'rsatkichi bo'lib, bir ga maydonga qo'llaniladigan sof moddalarning kg (ba'zi hollarda t) birlikda ifodalanishidir. O'g'it miqdori deganda esa, muayyan muddatda (masalan, ekish oldidan, 3-4 chin barg davri va h.k.) bir marta beriladigan o'g'it miqdori nazarda tutiladi. O'g'itlarni tuproq xossalari va ekinlar ildiz tizimining tarqalishini hisobga olgan holda turli chuqurlikka tushishiga erishish muhim agronomik tadbirdir. Tuproqning ancha chuqur, nam



qatlamiga tushgan o'g'itlar oson eriydi va o'simliklar tomonidan butun o'sish davri davomida yaxshi o'zlashtiriladi. O'g'itlarni qo'llashda ularni yerosti suvlari ta'sirida harakatlanishi, yuvilishi va gaz shaklida yo'qolishi kabi salbiy jarayonlarni hisobga olish lozim. Bu birinchi navbatda azotli o'g'itlarga tegishli bo'lib, nitrat shaklidagi azot sug'orma suvlar ta'sirida yuviladi va atrof-muhitni ifloslantiradi. Mazkur jarayon ayniqsa, yengil mexanikaviy tarkibli tuproqlarda jadal ketadi. Nitratlarning yuvilishi erta bahor va kech kuz davrlarida sezilarli darajada kuchayadi. Quruq iqlimli sharoitlarda sug'orishdan keyin nitratlar suvning kapillyar ko'tarilishi jarayonida tuproqning yuza qatlamlariga qarab harakatlanadi. Shu sababdan azotli o'g'itlarni qo'llash muddatlari va ammiak shaklidagi azotning nitrifikatsiyalanish jadalligini bilish katta amaliy ahamiyatga ega. Nitratli-azotli o'g'itlar tarkibidan azotning yo'qolishi boshqa turdagi azotli o'g'itlardagiga qaraganda kuchliroqdir. Qattiq holatdagi ammiakli va amidli-azotli o'g'itlar tuproqqa yuza solinganda, rN, o'g'it meyorlari va tuproq namligining ortishi bilan ularning isrof bo'lishi ham oshib boradi. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, ammiakli selitra va mochevina yuza qo'llanilganda, tarkibidagi azotning 1-3 % i bekorga isrof bo'ladi.

Suyuq azotli o'g'itlarni tuproqning yuza qatlamlariga qo'llash ko'p miqdordagi azotning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Qumoq tuproqlarda suvli ammiak 10-12, suyuq ammiak 16 sm chuqurlikka solinganda, azotning isrof bo'lishi kuzatilmaydi. Soz tuproqlarda esa bu ko'rsatkich mos ravishda 7-8 va 12-14 sm ni tashkil etishi lozim. Fosforli o'g'itlar ancha qiyin eriydigan shaklda bo'lganligi sababli odatda ular tuproq profili bo'ylab juda ham sekin harakatlanadi. Shuning uchun fosforning o'simliklarni asosiy ildiz tizimi tarqaladigan qatlamlardan yuvilishi sezilarsezilmas miqdordadir. Ma'lumki, kaliy qumli va qumloq tuproqlardan kamroq miqdorda yuvilishi mumkin.

Fosfor va kaliyning tuproqda fiksatsiyalanishi juda tez (tuproqqa tushgach 1-2 kecha-kunduz davomida) sodir bo'ladi. Bunda fosforning anchagina qismi (60-70% i) qiyin o'zlashtiriladigan birikmalar tarkibiga o'tadi. Fosforning mazkur holatga o'tish miqdori va jadalligi bevosita o'g'itning fizikaviy holatiga bog'liq. Odatda kukunsimon holatdagi fosforli o'g'itlar donador fosforli o'g'itlarga nisbatan tuproq bilan tezda muloqotga kirishadi va qiyin o'zlashtiriladigan shaklga o'tadi. Fosforli va kaliyli o'g'itlar ekishgacha tuproqning yuza qatlamlariga solinganda, ularning asosiy qismi o'simliklar tomonidan o'zlashtirilmay qoladi. O'sish davrida oziqlantirgich moslama yordamida beriladigan qo'shimcha oziqlantirish to'g'risida ham shunday fikr yuritish mumkin. Shu sababdan ham fosforli va kaliyli o'g'itlar yillik meyorining asosiy qismi (50-60 % i) kuzgi shudgor ostiga beriladi.



Asosiy (ekishgacha) o'g'itlash. O'g'itlashning bu usuli ekinlarni butun o'sish davri mobaynida, ayniqsa, oziqa moddalariga yuqori talab qo'yiladigan, jadal rivojlanish davrida, oziqa elementlari bilan ta'minlash uchun qo'llaniladi. Asosiy o'g'itlashda rejalashtirilgan o'g'it meyorining asosiy qismi tuproqqa solinadi. Xo'jalikning tuproq-iqlim sharoitlari va ayrim iqtisodiy-tashkiliy muammolaridan kelib chiqqan holda asosiy o'g'itlash ko'proq kuzda, ba'zi hollarda bahorda amalga oshiriladi.

XULOSA

Asosiy o'g'itlashning eng maqbul muddatlarini belgilashda tuproqning mexanikaviy tarkibi, namlanish sharoitlari va o'g'itlarning xususiyatlari hisobga olinadi. Oson eruvchan va serharakat bo'lganligi sababli nitratli va ammiaklinitratli azotli o'g'itlar faqat tuproqni bahorda qayta haydash davrida yoki kultivator-o'g'itlagich yordamida solinadi. Bahorgi nam va iliq davrda ammiak shaklidagi azot juda qisqa muddatda nitrat shakliga o'tadi va atmosfera yog'insochinlari yoki sug'orma suvlar ta'sirida osonlik bilan pastki qatlamlarga yuviladi. Fosforli o'g'itlarni iloji boricha chuqurroq ko'mish uchun ular odatda kuzgi shudgor yoki bahorda qayta haydash oldidan sochib chiqiladi. Tarkibida xlor tutgan kaliyli o'g'itlar yillik meyorining 50% i yoki undan ham ko'prog'i kuzgi shudgor ostiga solinsa, kuzdagi yog'insochinlar ta'sirida xlorning o'simliklarga ko'rsatadigan salbiy ta'siri ancha kamayadi. Go'ngni ham kuzda, ayrim hollarda bahorgi ishlov paytida ishlatish yaxshi samara beradi. Go'ngni ko'mish chuqurligi bevosita tuproqlarning namligi va mexanikaviy tarkibi bilan bog'liq. Nam va og'ir mexanikaviy tarkibli tuproqlarda go'ngni yuzaroq solish yaxshi samara beradi. Asosiy o'g'itlashda ko'proq sochma va lokal (joyiga) usullardan kengroq foydalaniladi. Tajribalar natijalarining ko'rsatishicha, o'g'itlar lokaltasmasimon usulda qo'llanilganda, ekinlar hosildorligi 3-23% ga oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musayev B.S. Agrokimyo / Darslik / Toshkent 2001.
2. Karimov M.U. O'g'it qo'llash tizimi / Darslik / Toshkent 2017.
3. QISHLOQ XO'JALIGI VA GEOGRAFIYA FANLARI ILMIIY JURNALI 10 FEVRAL / 2024 YIL / 2 – SON 40 AZOTLI O'G'ITALAR HAQIDA MA'LUMOTLAR VA ULARNING O'SIMLIKLARIGA TA'SIRI
4. Rashidov K.T., Beda ekish muddatlarining don va ko'k massa hosildorligiga ta'siri "Tadqiqotlar" jahon-ilmiy metodik jurnali 24-son to'plami 33-36 betlar



ҒАЛЛА БИТЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЗАРАРИ

Икромалиев Асадбек Ғанижон ўғли

Тошкент давлат аграр университети талабаси

Азимова Умида Носиржон қизи

Тошкент давлат аграр университети талабаси

Бекчанов Азамат Шухрат ўғли

Тошкент давлат аграр университети талабаси

Аннотация. Ушбу мақолада ғалла экинларида учровчи ширалари турлари ва уларнинг биологияси, тарқалиши, зарари ва қарши кураш чоралари бўйича маълумотлар келтирилган.

Таянч сўзлар. Ғалла экинлари, ширалар, катта ғалла шираси, оддий илдиз бити, етук зот, энтомофаг, паразит.

Марказий Осиёда ғалла экинларига ўсимлик битининг бир неча тури анча катта зиён етказди, жумладан, катта ғалла бити (*Amphorophora avenae* Fabr. ва бунинг синоними бўлган *Sitobion avenae* Fabr.) арпага, буғдойга; маккажўхори, оқ жўхори ва тарикқа тушади; ғалла бити (*Toxoptera graminum* Rond.) арпа, буғдой, маккажўхори, оқ жўхорига, айниқса шолига кўп шикаст етказди; арпа бити (*Brachycolus roxius* Mord.) арпага ва қисман буғдойга тушади. Маккажўхори бити (*Sipha maudis* Pass.) арпани, буғдойни, маккажўхори ва оқ жўхорини шикастлайди; оддий илдиз бити (*Forda trivialis* Pass.) буғдой ва арпага тушади. Баъзан сули-маккажўхори бити (*Aphis maydis* Fitch.)

Марказий Осиёда арпада, буғдойда, тарикда, маккажўхори ва оқ жўхорида учраб туради; Курдюмов бити (*Sipha kurdjumovi* Mordv.) арпага тушади, аммо бу битларнинг зарари унча катта бўлмайди.

Битлар шира сўриши натижасида ғалласимон ўсимлик заифлашади, улар кўпайиб кетган ҳолларда ўсимлик нормал ўсмайди ва дон тугишдан орқада қолади; ўсимлик дони кўпинча пуч бўлиб қолади, барглари сўлиб сарғаяди; баъзан арпа битининг сўриши натижасида учки барглари химарилади ва бошоқнинг барг қинидан чиқишига монелик қилади. Битдан шикастланган ўсимликлар соғлом ўсимликларга қараганда сувни кўпроқ сарфлайди.

Катта ғалла бити Палеарктиканинг ҳаммасида учрайди; ғалла бити жанубий ва ўрта Европада, Россияда эса шимолда Полтавагача бўлган жойларда, Кавказда, Кавказ ортида, Уссурий ўлкасида, Шимолий Америкада,



Қозоғистонда ва Марказий Осиёда бўлади. Арпа бити Марказий Осиёда, Украинада ва Кавказ ортида учраб туради; маккажўхори, бити Марказий Осиёда, Кавказ ортида, жанубий ва Ўрта Европада (шимолда Минск шахригача бўлган жойларда), Ғарбий Сибирда учрайди; оддий илдиз бити Марказий Осиёда, Кавказ ортида, Қримда, шимолий ва жанубий Европада учрайди. Катта ғалла бити 2—2,8 мм катталиқда бўлиб, туси яшил рангда, қанотлиларининг боши ва кўкраги қизғиш қўнғир сўриш найчасининг узунлиги танаси узунлигининг учдан бир—тўртдан бир қисмига тўғри келади; найчаси, шунингдек мўйлови, панжаси, сонининг юқориси ва болдири қора тусда; мўйлови танасидан узунроқ бўлади. Ғалла битининг бўйи 1,2—2 мм; туси яшил рангда, қанотлиларининг боши, ўрта ва кейинги кўкраги тўқ қўнғир тусда бўлади. Бит орқаси бўйлаб бирмунча тиниқ яшил йўл ўтади, мўйлови танаси ярмидан узунроқ қанотсиз битнинг сўриш найчаси танасининг олтидан бир—тўққиздан бир қисмига, қанотли битда эса саккиздан бир—ўндан бир қисмига барабар келади. Олдинги қанотининг медиаль томири бу битда бир марта шохлайди, ҳолбуки бошқа ғалла битларида—икки марта шохлайди. Арпа битининг бўйи 1,6—2,2 мм; туси оч яшил ёки сарғиш яшил рангда бўлади. Қанотлиларининг ўрта-орқасида иккита тўқ яшил доғ бор кўзи ва мўйлови қора. Мўйловининг узунлиги—танаси ярмидан калтароқ, сўриш найчаси ривожланмаган бўлиб, дўмбоқча шаклида бўлади. қанотсизларининг танаси юпқа мумсимон ғубор билан қопланган. Маккажўхори битининг бўйи 1,6—2,3 мм; туси ялтироқ, тўқ қўнғир рангда; қанотсизларининг мўйлови сариқ, қанотлиларининг мўйлови қўнғир тусда, қанотсиз битларнинг мўйлови танаси бўйининг учдан бир қисмидан сал узунроқ қанотлиларининг мўйлови эса тана бўйинининг ярмига тенг. Сўриш найчаси жуда қисқа—худди дўмбоқчага ўхшаб туради. Оддий илдиз бити сарғиш, баъзан оч яшил рангда бўлади; тана шакли тухумсимон кўринишда; мўйлови қисқа, сўриш найчаси бўлмайди. Катта ғалла бити, ғалла бити, арпа бити ва маккажўхори бити миграция этмайдиган (кўчиб юрмайдиган) битлар жумласига киради.

Оддий илдиз бити Марказий Осиёда ривожланишнинг тўла циклини ўтмайди, чунки бу ерларда бит яшайдиган асосий илдизли ўсимлик—писта (*Pistacea terebinthus*) ўсмайди, балки бу ўсимликнинг бошқа тури—*P. vera* ўсади, бу пистада илдиз бити яшай олмайди. Миграция этмайдиган барча ғалла битлари тухумлик стадиясида қишлайди, урғочи бит тухумини ёввойи ва экиладиган ғалла ўсимликларига қўяди. Илдиз бити личинкалик ва имаго стадиясида ғалласимонлар илдизида қишлайди. Катта ғалла бити, ғалла бити



ва маккажўхори бити бошоқли ўсимликлар баргида, поясида ва бошоғида очик ҳолда яшайди. Арпа бити эса булардан фарқ қилиб, баргларда очик ҳолда яшамайди, балки бошоқ тубидаги баргларнинг найи ичига кириб олади.

Ғалла бити ҳам кўпинча арпа бити билан бирга ёки алоҳида равишда учки барг қини ичига кириб олади. Илдиз бити ғалласимонлар илдизида яшайди. Битлар ўсимликда йирик тўда шаклида жойлашиб олади. Россияда зич тўда ҳосил қилмайдиган катта ғалла бити ҳам Марказий Осиёда кўпинча катта тўда ҳолида яшайди. Бит айниқса кўклам ва кузда кўпайиб кетади, ёзнинг иссиқ кунларида камаяди, чунки юқори ҳарорат битга ёмон таъсир этади, сўнгра битларни қириб юборадиган (ейдиган) паразит ва йиртқичлар кўпаяди; шунингдек бу вақтларда даштдаги ғалласимонлар ҳам қуриган бўлади.

Марказий Осиёда ғалла битларини қириб турадиган асосий паразитлар сирфид пашшаси *Sphaerophoria scripta* L. ва қандала *Triphleps albidipennis* Reut личинкаларидан ҳамда битларнинг 20 % дан кўпроғини йўқ қилиб юборадиган (Бухоро вилоятида ўтказган тажрибаларга кўра) майда яйдоқчи (*Aphidius leucopterus* Hal.) лардан иборатдир. Ғалла битлари Марказий Осиёда бир ёзда 10 дан кўпроқ бўғин беради. Бит тушган экинларга кимёвий чоралар қўлланилиб, 4—5 % ли анабадуст ёки никодуст порошоги чангланади. Маданий хўжалик чоралари жумласига—баҳори ғаллаларни мумкин қадар барвақт экиш (бунда битлар ёппасига пайдо бўлгунча ўсимликлар жуда бақувватлашиб олади); анғизни эрта ҳайдаш; донларнинг тўкилишига йўл қўймаслик дала ва унинг теварагида ёввойи ғалласимон ўсимликларни ўстирмаслик каби тадбирлар киради. Суғориладиган ерларда ғалла ўрими вақтида алдағич экини экиб, яъни озроқ ерга ғалла экиб, кейинчалик бу экинни молга ўриб едириш ҳам яхши натижа беради.

Фойдаланган адабиётлар.

1.Алимухамедов С.Н., Ходжаев Ш.Т. - Вредители хлопчатника и меры борьбы с ними, изд. «Узбекистан», г.Т., 1979.

2.Кимсанбоев Х.Х. ва бошқ. - Умумий ва қишлоқ хўжалик энтомологияси. Тошкент, 2002. 3.Олимжонов Р.А.- Энтомология. “Ўқитувчи”.Тошкент,1977.

4.Хўжаев Ш.Т., Холмуродов Э.А. - “Энтомология, қишлоқ хўжалик экинларини ҳимоя қилиш ва агротоксикология асослари. Тошкент, “Фан” нашриёти,2009.

5.Холмуродов Э., Болтаев Б. ва бошқ.- Умумий энтомология ва зоология асослари. (Ус.қўлланма). ТошДАУ нашр тахририяти. Тошкент,2012.



TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	ТИББИЁТДА ФАЛСАФИЙ ФИКРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ, НАТИЖАЛАРИ ВА ФАЛСАФИЙ ФИКРЛАРНИНГ ҚИСҚАЧА АСОСЛАНИШИ	3
2	PREVALENCE OF DYSLIPIDEMIA IN PATIENTS PRIOR TO BARIATRIC SURGERY IN UZBEKISTAN	15
3	NAVOIY LIRIKASIDA TABIAT VA INSON MASALASI	17
4	МАНМУДХО‘ЖА БЕҲБУДИЙ – “ЈАДИДЛАР ОТАСИ”	22
5	TIBBIYOT TA’LIMI SIFATINI OSHIRISH UCHUN PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.	31
6	IMPACT OF LOGISTICS EFFICIENCY ON THE ECONOMY	36
7	WAYS TO IMPROVE ECONOMIC RELATIONS IN SMALL BUSINESS ENTERPRISES	40
8	AGROSANOAT MAJMUASIDA ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARI VA MAHSULOTLAR TANNARXI	44
9	INFLUENCE OF PERSONNEL POLICY ON THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE	52
10	THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY IN INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES	58
11	IMPROVING PERSONNEL ACTIVITIES IN BANKS	62
12	ON THE ROLE OF FINANCIAL SERVICES IN THE ECONOMY OF THE COUNTRY AND REGIONS	67
13	IMPROVING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF BUSINESS ENTITIES	73
14	STATISTICS OF INVESTMENTS IN BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP	77
15	PROSPECTS FOR INCREASING COMPETITIVENESS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	82
16	NAMES OF PEOPLE, SUBJECTS AND PLACES RELATED TO MOURNING IN UZBEK AND GERMAN LANGUAGES	86
17	SURUNKALI LEYKOZ FONIDA YO‘LDOSH TO‘QIMASINING MORFOLOGIK XOS O‘ZGARISHLARI	93
18	ARALASH IQTISODIYOT	99
19	AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES	105
20	RAQOBAT VA MONOPOLIYA	109
21	ТЕХНОЛОГИЯ ВЗАИМОПЕДАГОГИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА СТУДЕНТОВ С ПЕДАГОГИЧЕСКИМИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯМИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	115



22	РАЗВИТИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПРОЦЕССАХ СОЦИАЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В МИРЕ	131
23	РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СОВРЕМЕННОЙ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ	147
24	ОБЗОР АНАЛИЗА ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ И GPS-НАВИГАЦИОННЫХ СИСТЕМ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ	162
25	ПОНЯТИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ	180
26	MUAMMOLI TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHIDA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR	197
27	THE SKILL OF A PRIMARY EDUCATION TEACHER IN PRACTICAL ORGANIZATION OF INNOVATIVE AND INTEGRATED LESSONS	202
28	SEMANTIC REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF «BEAUTY» IN THE LEXICAL SYSTEM OF THE ENGLISH AND KARAKALPAK LANGUAGE	209
29	THE PRACTICE OF OBTAINING FIRST-GRADE FLOUR AND PRODUCTS FROM THIRD-CLASS WHEAT OF DIFFERENT QUALITY	214
30	YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINING SPORT SOHASIDA ERISHGAN YUTUQLARI	219
31	O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA QISHLOQ XO'JALIGIDAGI O'ZGARISHLAR	225
32	ARGENTINANING TABIIY, IJTIMOYIY-IQTISODIY TARIXI.	229
33	TURK XOQONLIGINING HARBIIY YURISHLARI	233
34	FIZIKA FANINI O'QITISHDA "SOFT SKILLS" VA "HARD SKILLS" KO'NIKMALARINING AHAMIYATI	236
35	THE EFFECT OF USING NEWSPAPER ARTICLES IN CLASSROOM	243
36	MODERN DIAGNOSTIC METHODS FOR CLOSED ABDOMINAL INJURIES	248
37	MUSTAQILLIK DAVRI SHE'RIYATIDAGI BADIY SHAKL IZLANISHLARI: TARONA, QAYIRMA, QISQA SATRLAR	258
38	YERYONG'OQ HOSILINI BIR O'TISHDA KOVLASH VA DUKKAKLARINI POYASIDAN AJRATISH MASHINALARI	263
39	KARTOSHKKA O'SIMLIGINI IN VITRO SHAROITIDA APIKAL MERISTEMADAN KO'PAYTIRISH	266
40	MINERAL VA ORGANIK O'G'ITLAR HAQIDA TUSHINCHALAR VA ULARNI BIRGALIKDA QO'LLASH	269
41	FAJLIA BITLARI VA ULARNING ZARARI	274

Внимание!— ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ статьи и номера в юридическом, медицинском, социальном, научном журнале, информация в классах, права на информацию и правильные органы несут ответственность за точность данных органов.

Главный редактор:

В. Л. Семёнов

Помощник редактора:

М. А. Борисов

Редактор дизайна:

З. Ш. Халиков